ARXEOLOGIYA YODGORLIKLARINI OQAR SUV MANBALARI BO‘YICHA VOHA BO‘LIB JOYLASHISHI VA ULARNING KLASSIFIKASIYASI (FARG‘ONA VODIYSI, V-VIII ASRLAR)

© 2023 Matboboev Boqijon
Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, birinchi o‘rta asrlar, irrigatsiya tumanlari, vohalar, er egaliklari, konfederatsiya, yodgorliklar tipologiyasi, sug‘orma dehqonchilik, ko‘chmanchi chorvachilik.

Farg‘ona vodiysi V–VIII asrlar arxeologik yodgorliklarini oqar suv manbalari bo‘yicha joylashuvi yaxshi o‘rganilmagan. Keyingi yillarda ushbu satrlar muallifi tomonidan o‘rta asrlarlarga oid yodgorliklarini ro‘yxatga olush va tizimlashtirish ishlari olib borildi. Haritalashtirish jarayonida ilk o‘rta asrlarga oid 259 ta yodgorlik qayd qilininb, shundan 217 tasi arxeologik yodgorlik, 22 tasi ko‘hna turk yozuvi topilma joylari, 20 ga yaqin ostadon lar va 2 ta tangalar hazinasi tashkil qiladi. Arxeologik yodgorliklar mikrovohalarga, ular o‘z navbatida irrigatsiya rayonlariga ajratilgan. Natijada rayonlashtirishni quyidagi ierarxik tizimi shakllandi: suv manbasi>> mikrovoha >> irrigasion rayon. Har bir voga va irrigatsiya rayonida irrigatsiya tumanlarini ma‘muriy, madaniy yoki hunarmandchilik markazlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan markaziy yodgorlik shartli ravishda ajrartilib aniqlandi. Bunday irrigatsiya tumanlarini Farg‘ona vodiysida 14 tasi qayd etilib, ajratilgan ilk o‘rta asrlarga oid irrigation rayonlari qadimgi davrlarga oid irrigatsiya tizimiga to‘gri keladi. Yodgorliklar daryo va soylar bazasida joylashgan bo‘lib, bu holat yodgorliklarni va Eylaton madaniyati yodgorliklari joylashuviga o‘xshash hisoblanadi.

РАЗМЕЩЕНИЕ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ ПО ВОДНЫМ ИСТОЧНИКАМ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ (ФЕРГАНСКАЯ ДОЛИНА, V–VIII ВВ.)

© 2023. Матбабаев Бокижон
Самаркандский институт археологии имени Я. Гулямова

Ключевые слова: Ферганская долина, раннее средневековье, ирригационные районы, оазисы, землевладение, конфедератив, типология, орошаемое земледелие, скотоводство.

Система расположения археологических объектов по водным источникам на территории Ферганской долины в раннесредневековую эпоху не изучена. В последнее время автором данных строк впервые проведены учет и систематизация памятников данной эпохи. В процессе картографирования выявлено более 259 памятников раннесредневековой Ферганы, из них 217 археологических памятников, 22 местонахождения древнетюркских надписей и около 20 оссуарных и хумных захоронений, а также два клада монет. Каждая группа памятников объединена в микрооазисы или оазисы, последние, в свою очередь, объединены в ирригационные районы. В результате получилась следующая иерархическая система районирования: водный источник >> микрооазис, оазис >> ирригационный район. Для каждого оазиса или ирригационного района нами условно выделены так называемые центральные объекты, которые, вероятно, играли роль административного, ремесленного, культурного центра оазиса или нескольких оазисов (обычно 2–3). В итоге для Ферганской долины выделено 14 ирригационных районов. Выделенные ирригационные районы почти совпадают с территорией, которая осваивалась в более ранние периоды. Они расположены группами на базе водных ресурсов рек и саев, т.е. система расселения аналогична системе расположения памятников чустской и эйлатанской культур.

Farg‘ona vodiysini arxeologik o‘rganish boshlanganiga 100-yildan ortdi. Biroq uni o‘rganilishida talay muammolar mavjud. Ana shu muammolardan biri-farg‘onashunoslikda hozirgacha V–VIII asrlar arxeologik yodgorliklarning umumiy ro‘yxati tuzilmagani va ularni oqar suv manbalari bo‘yicha joylashish tizimi yaratilmagani hisoblanadi.

Cuv manbalari asosida ajratilgan irrigatsiya rayonlari va ularda ilk o‘rta asr yodgorliklarining joylashish tizimi (1–3 rasmlar).

Farg‘ona vodiysi xududini turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha rayonlashtirish ishlari mavjud. Ayniqsa, tabiiy geografik asosda rayonlashtirish ancha mukammal amalga oshirilgan. Ular xaqida Yu. A. Zadneprovskiy to‘la to‘xtalib o‘tgan (Zadneprovskiy 1991: 41). Shuning uchun biz vodiyning tabiiy geografiyasiga to‘xtalmay, bevosita mavzuni yoritishga o‘tamiz.

Farg‘ona vodiysi – atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan ulkan makondir. Vodiyning birgina g‘arbiy tomoni ochiq bo‘lib, uncha katta bo‘lmagan kenglik bilan Mirzacho‘lga tutashgan. Vodiy atrofidagi tog‘lar bir tomondan uni issiq va sovuq iqlim oqimidan saqlasa, ikkinchi tomondan, o‘z bag‘rida O‘rta Osiyoning asosiy suv manbai – Sirdaryoning boshlanishiga zamin yaratgan. Baland tog‘ tizmalaridan boshlangan jilg‘alardan soylar va ularni birlashuvidan daryolar tashkil topadi. Ular Chotqol va Qurama tog‘ tizmalari yonbag‘irlarida tarkib topgan Fovasoy, Kosonsoy, Poshshootasoy; Farg‘ona tog‘ tizmasining janubiy-g‘arbiy yonbag‘irlarida Moylisu, Qoraungur, Ko‘gart, Yassi; Oloy va Turkiston tog‘ tizmalarida Qurshob, Oqbura, Arovon, Isfayram, Shoximardonsoy (Marg‘ilonsoy), So‘x, Isfara, Xo‘jabaqirgansoy, Oqsuv (Shuls 1965). Bu suv manbalari o‘z havzalarida tog‘, tog‘ oldi, tekislik qismlarda unumdor vodiyni hosil qilgan va bu hududlarda qadimdan birinchi navbatda sug‘orma dehqonchilikka asoslangan xo‘jalik va turmush tarzi vujudga kelgan.

Vodiyning daryo va soylari, butun O‘rta Osiyoda bo‘lgani kabi, suv manbalarining to‘yinishiga ko‘ra quyidagi xillarga bo‘linadi:


1. Abadiy muzliklardan bosh oladigan daryolar;
2. Qor aralash muzliklardan va buloq suvlaridan to‘yinadigan daryolar;
3. Abadiy qorlardan suv oladigan daryolar;
4. Aralash qor-yomg‘irlardan to‘yinadigan daryolar (Shuls 1969: 27; Srednyaya Aziya 1968: 123–137).

Mutaxassislar vodiydagi daryo-soylarning birinchi xiliga Norin va uning irmoqlari, Oqbura, Aravonsoy, Isfayramsoy, Shoximardonsoy, So‘x, Isfara soylarini kiritadilar. Ushbu daryo-soylarda suv asosan issiq yoz paytlarida ko‘payadi (ya’ni muzliklarning faol erishi payti), qish va kuzda esa ularning suvi kamayadi. Ikkinchi xil daryolar turkumiga Qoradaryo va uning irmoqlari: Qurshob, Qorag‘ulja, Tar kabilar kiradi. Bular asosan bahor-yoz oylari – may-iyun oylarida sersuv bo‘ladilar. Uchinchi xil daryo-soylariga Yassi, Ko‘gart, Qoraungur, Moylisu, Poshshootasoy, Kosonsoy, Fovasoy kabilar kiradi. Ular asosan mavsumiy qorlardan suv oladilar, mart-may oylarida suv zahiralari ko‘payadi. To‘rtinchi xil daryolar Qurama-Chotqol va Janubiy Farg‘onadagi tog‘ tizmalaridan boshlanadigan ko‘plab muvaqqat soylardan iborat bo‘lib, mavsumiy qor, bahorgi sel-yomg‘irlardan to‘yinadilar. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bu daryolar yozni birinchi yarmidayoq suvining 80–100 foizini oqizib tugatadi, so‘ngra deyarli qurib qoladi (Shuls 1969; 1965).

Vodiyning asosiy suv manbalaridan biri Norin daryosi Mingbuloq qishlog‘i yaqinida janubiy-sharq tomondan oqib kelgan Qoradaryo bilan qo‘shilib Sirdaryo nomini oladi va shu tariqa O‘rta Osiyoning azim daryosi tashkil topadi. Norin daryosining suv xavzasi 59110 km2, Qoradaryoniki esa 28630 km2. Ana shunday katta xududda eng qadimgi davrlardan boshlab aholi o‘rnashgan va ikki xil xo‘jalik (o‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi chorvachilik) yuritishgan.

Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra vodiyda eng qadimgi dehqonlarga oid mil. avv. III–II ming yillikka to‘g‘ri keladigan topilmalar aniqlangan, ularga taaluqli madaniy qatlamlar topilganicha yo‘q. Yodgorliklari ko‘p va yaxshi o‘rganilganlari Chust madaniyati yodgorliklari deb yuritiladi. Aynan shu davrdan boshlab paydo bo‘lgan ziroatchilik an’analari sug‘orma dehqonchilikning eng oddiy usullari asosida keyingi ming yilliklarda ham davom ettirildi. Tabiiy ravishda mazkur arxeologiya yodgorliklari suv manbalari bo‘yida yoki uning yaqinida joylashgan (Bernshtam 1952; Latynin 1961; Latynin 1961a). Farg‘ona vodiysidagi ilk dehqonchilik manzillarining daryo va soylar yaqinidagi vohalarda joylashishi arxeologik jihatdan ham qayd etilgan (Zadneprovskiy 1981: 23–38).

Suv manbalariga qarab yashash makonlarining joylashgani keyingi tarixiy davrlarda ham kuzatiladi. Bu xaqda Sho‘rabashot va Marhamat madaniyatlari yodgorliklari bo‘yicha B. A. Latinin, A. N. Bernshtam,



1-rasm. Farg‘ona vodiysining ilk o‘rta asrlar davri arxeologik yodgorliklari
Рис. 1. Археологические памятники раннесредневековой Ферганы
Figure 1. Early medieval archaeological sites in Fergana Valley


Yu. A. Zadneprovskiy, N. G. Gorbunova, B. Abdulgaziyeva asarlarida yaxshi ma’lumotlar berilgan (Zadneprovskiy 1962; Zadneprovskiy 1991: 186–198; Gorbunova 1962: 91–122; Gorbunova 1977: 107–120; Abdulgaziyeva 1988). Biz o‘rganayotgan ilk o‘rta asrlar uchun ham ushbu masala bo‘yicha dastlabki izlanishlar amalga oshirilgan (Abdulgaziyeva 1988: 20; Brykina 1999: 93–113).

Bular hisobga olinib, Farg‘ona vodiysidagi barcha ilk o‘rta asrlar davri yodgorliklarini to‘la ro‘yxati ishlab chiqildi va xaritaga tushirildi. Ta’kidlash joizki, mavzuga tegishli yodgorliklar respublika xududiy chegarasi doirasida emas, balki uch mustaqil respublikaga qarashli xududlardagi (O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston respublikalari) barcha arxeologik yodgorliklar kiritildi. Hammasi bo‘lib ilk o‘rta asrlar (V–VIII) ga oid 217 ta axeologik yodgorlik, zardushtiylik udumi bilan ko‘milgan ostadonli qabristonlar 20 ga yaqin va 22 manzilda ko‘hna turkiy yozuv namunalari topilgan joylar xaritaga tushirildi.

Yodgorliklar davrini belgilashda asosiy manba sifatida kulolchilik mahsulotlari xizmat qildi. Nisbiy va mutlaq yoshi aniqlangan yodgorliklar materiallarini tahlil etish va ularni ma’lum suv manbalari bilan bog‘lab, Farg‘ona vodiysi ilk o‘rta asrlar davri yodgorliklarini 14 ta irrigatsiya rayonlariga bo‘lib o‘rganish imkoniyati tug‘ildi. Shunga ko‘ra, har bir guruh arxeologiya yodgorliklari aniq suv manbalari asosida voha (vohacha)larga va vohalar irrigatsiya rayonlariga birlashtirildi. Suv manbalarini aniqlashda, o‘tgan XX asrning 20–50 yillarida tuzilgan xaritalar, statistik ma’lumotlar ham hisobga olindi va boshqa xududlarda olib borilgan arxeologik rayonlashtirish tajribalaridan foydalanildi (Askarov 1977: 7–13; Askarov 1993: 30–33; Buryakov 1982: 11–57; Sagdullayev 1978: 16; Rtveladze 1975:14: 62–63: 85). Odatda har bir irrigatsiya rayonida (2-rasmda ular rim raqami bilan ko‘rsatilgan) bir necha voha va kichik vohalar bo‘lishi mumkin. Natijada tadqiqotda yodgorliklarni suv manbalari asosida rayonlashtirishda quyidagi iyerarxik tizim vujudga keldi: 1) Voha, vohalar – irrigatsiya rayoni: yodgorliklar va suv manbalari; 2) Irrigatsiya rayonlari – xudud (yoki viloyat). Har bir irrigatsiya rayoni va vohasi uchun muhim bo‘lgan markaziy yodgorlik aniqlandi. Bunday markaziy yodgorliklar irigatsiya rayonining (balkim vohaning) hunarmandchilik va savdo-sotiq markazi vazifasini bajargan. Qadimgi Farg‘ona xududiy doirasida olib borilgan izlanishlar suv manbalari bo‘yicha quyidagi 14 ta irrigatsiya rayonlariga ajratildi .

I. Qurshob-Yassi irrigatsiya rayoni – №165, 181, 197, 200, 209 (6 ta arxeologik yodgorlik).

II. Oqbura irrigatsiya rayoni – №1–6, 107, 114, 166, 167, 189–199 (15 ta yodgorlik).



2-rasm. Farg‘ona vodiysi arxeologik yodgorliklarini suv manbalari bo‘yicha rayonlashtirish (V–VIII asrlar)

Рис. 2. Районирование археологических памятников Ферганской долины по водным источникам (V–VIII вв.)

Figure 2. Zoning of archaeological sites in the Fergana Valley by water sources (5th–8th centuries)

III. Aravonsoy irrigatsiya rayoni – №10–11, 14–20, 65–66, 68, 70, 91–92, 94–106 (28 ta arxeologik yodgorlik).

IV. Andijonsoy irrigatsiya rayoni – №30–34, 50–51, 52, 63–64, 73–75 (13 ta yodgorlik).

V. Shaxrixonsoy irrigatsiya rayoni – №76–82, 84–90 (14 ta arxeologik yodgorlik).

VI. Quvasoy irrigatsiya rayoni – №69, 146–152, 153–155, 189, 196 (14 ta yodgorlik).

VII. Marg‘ilonsoy irrigatsiya rayoni – № 142–143, 157, 211, 158–164 (11 ta arxeologik yodgorlik).

VIII. Tentaksoy irrigatsiya rayoni – №54–59, 62 (7 ta arxeologik yodgorlik).

IX. Norin-Qoradaryo irrigatsiya rayoni – №21–22, 24–27, 35–39, 41–48, 60–61, 115–128 (35 ta arxeologik yodgorlik).

X. Chortoqsoy irrigatsiya rayoni – №129–133 (5 ta arxeologik yodgorlik).

XI. Poshshootasoy irrigatsiya rayoni – №134–140 (7ta arxeologik yodgorlik).

XII. Kosonsoy irrigatsiya rayoni – №206 (guruh yodgorliklari).

XIII. Fovasoy irrigatsiya rayoni – №207–208 (guruh yodgorliklari).

XIV. So‘x irrigatsiya rayoni – №172, 182, 183, 194 (4 ta arxeologik yodgorlik).

Quyida bu irrigatsiya rayonlari xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

I. Qurshob-Yassi irrigatsiya rayoni yettita yodgorlikni (№2, 165, 181, 197, 200, 209, 213) birlashtiradi. Ular Qurshob va Yassi daryolari qo‘shilishidan hosil bo‘lgan Qoradaryo xavzasidagi sersuv, unumdor yerlarga joylashgan. Ular ichida O‘zgan (№181), Dunbuloq (№165), Sutkent (№197), Norbo‘ta (№209) kabi yodgorliklar o‘z tarixiy topografiyasiga ko‘ra yirik shaharlar hisoblanadi. Boz ustiga bu yodgorliklarda madaniy qatlamlar qalinligi boshqa yodgorliklardan farq qiladi. Bu irrigatsiya rayonida markaz vazifasini Dunbuloq yodgorligi (maydoni 13,5 ga) bajargan bo‘lishi kerak.


II. Oqbura irrigatsiya rayonida 15 ta yodgorlik bor (№1, 5-6, 107–114, 166–167, 198–199). Yodgorliklar Oqburani har ikki qirg‘og‘ida joylashgan. Markaz vazifasini Qo‘rg‘ontepa (8 ga) yodgorligi o‘ynagan.

III. Aravonsoy irrigatsiya rayonida 28 ta yodgorlik ro‘yxatga olingan va ular to‘rtta vohaga bo‘linadi: birinchisida №91, 92, 94–106 kabi, ikkinchisida esa №168–169 yodgorliklar aniqlandi. Aravonsoy ularning

asosiy suv manbai hisoblanadi. Bu xududda markaz vazifasini o‘tovchi yirik yodgorlik uchratilmadi. Ushbu rayonning mavjud yodgorliklari orasida eng kattasi Eski Aravon (№168 – maydoni 2,2 ga) bo‘lib, voha markazidan chetroqda joylashgan. Shuning uchun Aravonsoy irrigatsiya rayonining bosh yodgorligi hozircha noaniq bo‘lib qolmoqda. Shu rayon doirasida yana bir guruh yodgorliklar bo‘lib, ularning suv manbai nafaqat Aravonsoy, balki Akshar va Qirg‘izsoylar ham bo‘lgan. Bu rayonda yana bir suv manbasi Jilg‘insoy bo‘lib, uning suvidan antik davrda foydalanilgani xaqida arxeologik ma’lumotlar mavjud (Gorbunova 1977: 115). Chunki Aravonsoy suvi uning yuqori va o‘rta oqimidagi aholisi tomonidan keng foydalangani uchun soy suvi debiti Mingtepa rayoniga yetib bormagan. Bu rayonda 14 ta yodgorlik bo‘lib (10–11, 14–20, 65–66, 68, 70), ular ikkita vohaga bo‘lingan. Birinchisi – №10–11, 14–20, 201 yodgorliklar majmuasi bo‘lsa, ikkinchisi – №65-66, 68, 70 yodgorliklar guruhidir. Bizningcha, bu voha markazi Alitepa (№11) bo‘lgan. Albatta Mingtepada (№10) ham bu davrda hayot davom etgan, lekin ilgarigi antik davrdagi gavjum turmush tarzi darajasida bo‘lmagan.

Ushbu uchta irrigatsiya rayonida saqlanib qolgan yodgorliklarning joylashuvi va suv bilan ta’minlanishini o‘rganish davomida yana bir muhim masalaga oydinlik kiritildi. Ya’ni, B. A. Latinin o‘tgan asrning 30–50 yillarida alohida e’tibor bergan Savay dashtidagi yodgorliklar va ulardagi suv inshootlari tizimi masalasi xaqidagi fikridir (Latynin 1961: 151). Bu muammoni o‘sha paytda arxeologiya va irrigatsiya inshoatlari nuqtayi nazaridan o‘rganish imkoniyati bo‘lmagan. B. A. Latinin fikrining bir muhim tomoni shundaki, Kampirravotdan boshlangan Savay irrigatsiya inshooti Qurshob-Yassi, Oqbura va Aravonsoy rayonlari suv ta’minotida faol qatnashgan. Chunki, ushbu hudud Aravonsoy va Oqburaning adoq qismi hisoblanib, bu yerlarda suv tanqisligi bo‘lganligi ehtimoli ko‘proq.

IV. Andijonsoy irrigatsiya rayoni – sug‘orma dehqonchilik madaniyati rivojlangan xududlardan hisoblanadi. Uning asosiy suv manbai Andijonsoy bo‘lib, uning xavzasida 13 ta yodgorlik aniqlangan. Ular ikkita vohaga birlashganlar. Birinchi voha doirasida №30–34, 50–51, 73–75, ikkinchi voha doirasida esa №52, 63–64 yodgorliklar mavjud. Bularga Oqtepa guruhi (№30–34, 50–51) yaqin joylashgan bo‘lib, u alohida dehqonchilik mavzesini tashkil qiladi. Ushbu rayon markazi Andijon bo‘lishi mumkin. Ilk o‘rta asrlarda Andijon ushbu irrigatsiya rayonidagi asosiy shaharlardan bo‘lib, unga shimoliy-g‘arbiy qismda qad ko‘targan Chordona, Oqtepa va Sarvontepalar alohida ahamiyat kasb etgan (Brykina 1999: 94: karta 5).



2-rasm. Ilk o‘rta asrlarda Farg‘ona vodiysi yer egaliklari
Рис. 3. Раннесредневековые землевладения Ферганы
Figure 3. The early medieval landholdings of Fergana

V. Shaxrixonsoy irrigatsiya rayoni. Bu rayonda 14 ta arxeologik yodgorlik qayd etilgan. Ular Shahrixonsoy havzasida bir joyda to‘p bo‘lib joylashgan (№76–82, 84–90). Soxiobodtepa (№76), Oqrabot (№77) va Oqto‘nlimozor (№81) kabilar alohida ajralib turadi. Bu guruhning markazi vazifasini bajargan yodgorlik bizgacha saqlanib qolmagan.

Mingtepa, Andijonsoy, Shaxrixonsoy irrigatsiya rayonlari oralig‘ida joylashgan uchta yodgorlikni (№71, 72, 83) biron irrigatsiya rayoni bilan bog‘lash qiyin kechmoqda. Shulardan Tuskovulota (№83) maydoni jihatidan (100 x 80 m) ancha katta, ma’lumotlarga ko‘ra bir vaqtlar bu yodgorlik tepalar guruhidan iborat bo‘lgan. Shuning uchun bu xil yodgorliklarni yo‘q bo‘lib ketgan voha qoldig‘i deb hisoblash mumkin.

VI. Quvasoy irrigatsiya rayonida 14 ta arxeologik yodgorlik ro‘yxatga olindi va ular ikkita vohada joylashgan. Birinchi vohada №153–155, 189, 196, ikkinchi vohada esa №69, 146–152 yodgorliklar joylashgan. Sug‘orma ziroatchilikda ularning aholisi Quvasoy va Jilg‘insoy suvidan foydalanishgan. Quva (Qubo) butun Janubiy Farg‘onani markaziy yodgorligidir. Uning hozirgacha saqlanib qolgan qismidan ham Qubo qadimgi shahrini V–VIII asrlarda aholi zich joylashgan yirik shahar bo‘lganini tasavvur etish mumkin.

VII. Marg‘ilonsoy (Shohimardonsoy) irrigatsiya rayonida 11 ta yodgorlik qayd etilgan. Ular soyning har ikki tomonida joylashgan va ikkita vohadan iborat. Birinchisi Marg‘ilonsoy o‘rta oqimida joylashgan (№158–164). Bu guruh yodgorliklari ichida Mozortepa (№161) maydoni – 140 x 110 m.ga teng va Mugposhsho (№162) maydoni 4 ga yaqqol ajralib turadi. Mugposhsho maydoni va joylashishiga ko‘ra vohaning markazi vazifasini bajargan. Ikkinchi guruh yodgorliklar 4 ta tepaliklardan (№142–143, 157, 211) iborat bo‘lib, shu guruhga Pisak (№144) yodgorligini ham kiritish mumkin. Bular orasida Shaxartepa (№143), maydoni 110 x 80 m eng yirigi bo‘lib, shartli ravishda uni ushbu voha markazi bo‘lgan deyish mumkin. Ushbu guruhning shimoliy va g‘arbiy tomonlarida deyarli yodgorliklar uchramaydi. Chunki bu irrigatsiya rayonidan so‘ng vodiyda Markaziy Farg‘ona qumliklari boshlanadi.

VIII. Tentaksoy irrigatsiya rayonida 7 ta arxeologiya yodgorligi hisobga olindi (№54–59, 62). Ushbu yodgorliklar Qoradaryoning irmoqlaridan biri Tentaksoy xavzasida joylashgan. Bu soy Farg‘ona tizma tog‘larini shimoliy-g‘arbiy chekkasidan bosh oladi. Uning Bozorqo‘rg‘ongacha bo‘lgan xududlari Qoraungur nomi bilan ma’lum. Uning boshqa xududlardan farqi shundaki, bu rayonda arxeologik yodgorliklar unchalik ko‘p emas. Ammo ularning maydonlari boshqa xudud yodgorliklariga nisbatan katta: mas., Janodiltepa (№58) – 16 ga, Fayziobod (№59) – 3 ga, Xauskonota (№62) – 5 ga.

IX. Norin – Qoradaryo irrigatsiya rayoni ilk o‘rta asrlarda aholisi qalin joylashgan xududlardan hisoblanadi. Chunki bu rayonning suv manbalari boy, yerlari unumdor. Bu xudud Chust madaniyati aholisi tomonidan so‘nggi bronza davridan o‘zlashtirilgan. Ilk dexqonchilik makonlari mil. avv. II ming yillikning oxirgi choragiga to‘g‘ri keladi. Hammasi bo‘lib bu rayonda 35 ta ilk o‘rta asrlarga oid yodgorliklar xaritaga tushirildi.

Ushbu rayonga alohida to‘xtab o‘tish joiz. Chunki, bu rayon Farg‘ona vodiysida nisbatan yodgorliklar ko‘p joylashgan xudud hisoblanadi. Ular ichida shaharlar ham ko‘p, ya’ni ushbu irrigatsiya rayonida 2 ta shahar, 18 ta qishloq, 1 ta qal’a, 6 ta qal’a-qo‘rg‘on, 5 ta uy-joy massivlari, 2 ta qabriston borligi aniqlandi (taxminan 50x30 km.li maydonda). Bu xududning V–VIII asrlarga tegishli yodgorliklar asosan uchta vohaga birlashadi. Vohalarning eng kattasi birinchi voha xududning janubiy-sharqiy tomonida u 19 ta (№21–22, 24–27, 35–39, 41–48) yodgorlikni birlashtiradi. Ikkinchisi uning shimoliy tomonda va unda atiga 2ta yodgorlik joylashgan (№60–61), uchinchi voha esa shimoliy-sharq tomonda joylashgan, unda 14 ta yodgorlik bor (№115–128). Vohaning suv manbalari Qoradaryo va Norin daryolarining irmoqlari (Qolgandaryo, Ishtirxonariq va b.) hisoblanadi. Birinchi vohaning markazi To‘rtko‘ltepadir (№21 – maydoni 12 ga), uchinchi voha markazi sifatida Qo‘rg‘ontepa (Buzulmas) faoliyat ko‘rsatgan (№117 – maydoni 7,5 ga). Ikkinchi voha ularning eng kichigi bo‘lib, bu xududiy birlikda shartli ajratilgan bo‘lib, faqat ikkita yodgorlikgina ro‘yxatga olingan.

X. Chortoq irrigatsiya rayoni 5 ta yodgorlikdan tashkil topgan bo‘lib (№129–133), ulardagi aholi o‘z xo‘jaligini Chortoqsoydan suv olib yuritishgan. Asosiy yodgorliklar Baliqliko‘l qishlog‘i yaqinidagi xududda (Qo‘shtepa I, II – №130) to‘plangan.

XI. Poshshootasoy irrigatsiya rayonida yodgorliklar soni 7 ta (№134–140). Ular soyning chap qirg‘og‘i bo‘ylab joylashgan. Bu rayonning eng katta yodgorligi Tillatepa (№136), uning maydoni 100 x 75 m ga teng.

XII. Kosonsoy irrigatsiya rayonini, A. A. Anarboyev o‘z tadqiqotlarida uni Koson dehqonchilik vohasi deb nomlaydi (Anarbayev 1986: 6). Uning bosh yodgorligi Axsiket va uning atrofidagi yodgorliklar majmuasi qayd etilgan. Bu rayonning asosiy suv manbalari Kosonsoy, Dastarsoy, Taldisoy, Olabuqasoy hisoblanadi.

XIII. Fovasoy irrigatsiya rayoniga Pop-Balandtepa atrofidagi yodgorliklar majmuasi kiradi. Bu guruh Morguzarsoy, Jabborsoy va Fovasoy oralig‘idagi xududni egallaydi. Bu xududiy rayonning yodgorliklari Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘iga joylashgan soy xavzalarini egallaydi. Antik davrlardan to rivojlangan o‘rta asrlargacha bo‘lgan davrga tegishli 15 ta yodgorlik aniqlandi. Ular ilk o‘rta asrlar davrini yirik yodgorliklari Balandtepa va Munchoqtepa atrofida joylashgan. Ushbu irrigatsiya rayoni markazi shubhasiz Balandtepa (qadimgi Bob) bo‘lgan. Bu shahar Ohangaron (Shosh–Choch) vohasidan Qamchiq dovoni orqali o‘tganda Farg‘ona vodiysiga kirishda birinchi katta aholi punkti hisoblangan.

XIV. So‘x irrigatsiya rayonida unchalik ko‘p arxeologik yodgorlik aniqlangan emas. Bu mavze yodgorliklariga, asosan, So‘xsoyning yuqori oqimi va uning tekislikka tushgan oqimidagi yodgorliklar kiradi (№172, 182, 183, 193). Bular yer egalari – dexqonlar qasrlari va ko‘chmanchi aholidan qolgan mozor-qo‘rg‘onlardir. Bu davrda suv ayirg‘ichlari rayonida va suv boshlarida mustahkam devorlar bilan o‘ralgan qala-qo‘rg‘onlar paydo bo‘ladi (Sariqo‘rg‘on – №156).

Irrigatsiya rayonlari xaqidagi bayonimizni yakunlar ekanmiz shuni ham ta’kidlash joizki, qadimgi Farg‘ona xududiga tutash vodiyning g‘arbiy qismida ikkita irrigatsiya rayonini shartli ajratish mumkin. Ularning biri Xo‘jand atrofi (№188, 192, 194, 195) bo‘lsa, ikkinchisi Isfana-Tagop rayonidir (№175, 176, 177, 178, 179, 180, 184, 185, 186). Ammo bu xududlarni territorial-geografik jihatdan vodiy doirasiga kiritish munozaralidir. Ular ko‘proq So‘g‘diyona-Ustrushonaga qaragan (Gorbunova 1983: 23). Shuningdek, bu xudud arxeologiya yodgorliklari kam o‘rganilgan, tadqiq etilgan yodgorliklar materiallari ham deyarli e’lon qilinmagan.

Ana shunday yodgorliklardan yana bir guruhi Isfarasoy havzasiga joylashgan. Bu rayon Tojikiston xududining tog‘ oldi rayoni bo‘lib, unda Tepa Qo‘rg‘on №187), Kalai Bolo (№192A) yodgorliklari va ular atrofidagi kichik tepalardir (№173–174). Bu guruh yodgorliklari ham ilk o‘rta asrlar davrida alohida madaniy voha sifatida shakllangan.

Demak, Farg‘ona vodiysida ilk o‘rta asrlar davrida uning axolisi suv manbalari (daryolar, soylar va ular irmoqlari xavzalari) bo‘yida guruh-guruh bo‘lib, voha va kichik vohalarni tashkil etib xo‘jalik yuritganlar. Ro‘yxatga olingan arxeologik yodgorliklar majmuasiga ko‘ra, ular 22 ta voha va kichik vohalarga, Xo‘jand atrofi, Isfanasoy, Isfarasoy va Eski Novqat atrofi rayonlarini ham qo‘shganda vodiyda 26 ta voha tarkib topganini kuzatamiz. Albatta irrigatsiya rayonlarining moddiy madaniyatida qator o‘xshashliklar bilan birga ma’lum farqlar borligi shubhasiz. Jumladan, tadqiqotchilar tomonidan kulolchilik maxsulotlari asosida I ming yillik birinchi yarmida vodiyda 7 ta kulolchilik markazlari bo‘lganligi ta’kidlanadi va ular o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lgan (Gorbunova 1983: 41–44). Navbatdagi bo‘limda ushbu irrigatsiya rayonlardagi arxeologik yodgorliklarni tasnifi xaqida gap boradi.

Dehqonchilik vohalaridagi ilk o‘rta asr arxeologiya yodgorliklarining klassifikatsiyasi (1-2-3-rasmlar)

Arxeologiya yodgorliklari majmuasini yaratish va ularning xronologik doirasini aniqlash yo‘lida olib borilgan izlanishlar davomida ilk o‘rta asrlarga taalluqli 259 ta yodgorlik ro‘yxatga olindi (shundan 217 tasi arxeologiya yodgorligi). Bu yodgorliklarning geografik joylashishi asosan so‘nggi bronza, ilk temir davri, antik zamonda o‘zlashtirilgan xududlar doirasiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘zlashtirilgan maydonlar aholini o‘sish hisobiga kengaygan. Agar vodiyni to‘rtta teng qismlarga bo‘lsak, uning sharqiy bo‘lagida ilk o‘rta asrlar davri yodgorliklarining 80 foizdan ortig‘i to‘g‘ri keladi. Shu manzara oldingi davrlarga ham xos bo‘lib, Farg‘ona vodiysining sharqiy xududlari qadimdan bobodehqonlar diqqatini tortgan. Bunday manzarani yuz berishida bu tomonlarni Qoradaryo suv xavzalari bilan bog‘liqligida bo‘lsa kerak. Ayniqsa yodgorliklarning zich joylashishi Marg‘ilonsoy (Shohimardonsoy) va Poshshootasoy yo‘nalishlari bo‘yicha sharqqa tomon kuzatiladi, ya’ni: 22 ta dehqonchilik vohasidan 19 tasi ushbu xududlar yo‘nalishida joylashgan. Yirik shaharlarning ko‘pchiligi I–XI irrigatsiya rayonlari xududida joylashgan. Albatta, bundan Axsiket, Balandtepa (Bob) va Mug‘ qala mustasno. Marg‘ilonsoy-Poshshootasoyning g‘arbiy yo‘nalishi bo‘yicha yodgorliklar siyraklashib boradi. Tog‘ va tog‘ oldi xududlarda esa yarim ko‘chmanchi va ko‘chmanchi axoli qoldirgan mozor qo‘rg‘onlar soni orta boradi (№202 –205). Yodgorliklarning bunday joylashish manzarasi albatta tabiiy geografik sharoitdan kelib chiqqan. Bu holat antik davrga ham xos ekanligi qayd etilgan (Gorbunova 1977: 118–119). Bunday holatni o‘tgan asrning 30-yillarida vodiyning Qizil Yor dashtida

ilmiy qidiruv olib borgan B. A. Latinin ham ta’kidlagan. Tadqiqotchining fikricha, arxeologik yodgorliklari guruhi uchta, ba’zida to‘rtta, ba’zi hollarda bundan ham ko‘proq yodgorliklar guruhini tashkil etadi. Ular orasidagi masofa 300–500 metr atrofida (Latynin 1961: 129). Yodgorliklarning ushbu davrda guruh-guruh bo‘lib (3–4 ta), bitta katta yodgorlik atrofida joylashganini T. G. Obolduyeva ham Katta Farg‘ona kanali qurilishi davridagi arxeologik kuzatishlari asosida ko‘rsatib o‘tgan (Obolduyeva 1951: 40). Ilk o‘rta asrlar davri yodgorliklari atrofdagi tog‘lardan bosh olgan daryo-soy suvlari bilan bog‘liq ekanligini B. A. Latinin alohida ta’kidlaydi. Uning ko‘rsatishicha, asosiy dehqonchilik makonlari Oqbura, Isfayram, Shohimardon, So‘x, Isfara (janub), Kosonsoy (shimol) havzalarida joylashgan va V–VIII asrlarda aholining aksariyat qismi shu atrofda istiqomat qilgan (Latynin 1961: 169).

Vodiyning 14 ta irrigatsiya rayonida jamlangan 217 ta arxeologik yodgorliklar o‘z navbatida quyidagi 30 ga yaqin katta-kichik daryo-soylarning suv zahiralari bilan bevosita bog‘liqdir: Yassi, Qurshob, Oqbura, Aravonsoy, Isfayramsoy, Marg‘ilonsoy, So‘xsoy, Isfarasoy, Morguzarsoy, Jabborsoy, Fovasoy, Sumsarsoy, Dastarsoy, Toldisoy, Olabuqasoy, Kosonsoy, Poshshootasoy, Chortoqsoy, Qolgandaryo, Ishtirxonariq, Moylisuv, Chartaksoy, Tentaksoy, Andijonsoy, Shaxrixonsoy, Quvasoy, Akshar, Qirg‘izsoy, Chekobodsoy va boshqalardir.

Arxeologik yodgorliklar tipologiyasi. Yodgorliklarning joylashuv tizimida ularning funksional vazifasi e’tiborga olingan. Bu masalada bronza davri, ilk temir va antik davri yodgorliklari tipologiyasi bo‘yicha ishlanmalar bo‘lib, ularda antik davr yodgorliklari tipologiyasi Yu. A. Zadneprovskiy va N. G. Gorbunovalar tomonidan yaxshi ishlab chiqilgan. Bu yodgorliklarni tiplarga bo‘lish, funksional jixatdan guruhlarga ajratish masalalari hal qilingan (Zadneprovskiy 1985: 312–313; Gorbunova 1977: 108–119). Boshqa xududlardagi mavjud tajribalarni hisobga olib, ushbu satrlar muallifi ilk o‘rta asrlar davri yodgorliklari tipologiyasini ilk bor amalga oshirdi. Yodgorliklar tipologiyasiga asos sifatida arxeologiya xarobalarining muqim aniqlangan belgilari bajargan vazifalari o‘rtasidagi uyg‘unlashuvi olindi. Bu belgilar yodgorlikning o‘lchamlari, uni ichki tuzilishi (planirovkasi) va topilmalar tarkibida namoyon bo‘ladi (Masson 1981: 36; Buryakov 1982: 9).

Bunda mavjud arxeologik yodgorliklar o‘lchamlari, xususiyatlari (devorlari, qismlarga bo‘linishi, shakli va h.) hisobga olinib, yodgorliklarning funksional jihatdan quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkinligi aniqlandi (1-ilova):

1. Shaharlar. Shahar maqomiga ega bo‘lgan va ularga tenglashtirilganlar (mudofaa inshootlari mavjud shaharchalar) (ilovada “G” harfi bilan belgilangan). Ularning soni vodiy bo‘ylab 22 ta yodgorlik (10,14%).
2. Qishloq makonlari (selskiye poseleniye) (ilovada “P”), ular vodiy bo‘ylab 92 ta yodgorlik (42,40%).
3. Qal’alar (qoravul qal’alar?) (krepost) (ilovada “K”) – 13 ta yodgorlik (5,99%).
4. Qal’a-qo‘rg‘onlar (yoki qasrlar), ular ikki xil ko‘rinishda, ya’ni mudofaa devorlari bilan o‘ralgan qasrlar (ukreplennoye poseleniye s zamkom) (ilovada “PZ”) va mudofaa devorlarisiz qasrlar (neukreplennoye poseleniye s zamkom) (ilovada “ZP”) – 27 ta yodgorlik (12,44%).
5. Yakka holda qad ko‘targan turar-joylar va ular guruhi (mavze yoki ovullar?) (doma, massiv domov) (ilovada “D”) – 29 ta (13,36%).
6. Yana ikki guruh yodgorliklar umumiy ro‘yxatga kiritilgan va ular ham ilk o‘rta asrlar madaniyatini ajralmas qismi hisoblanadilar. Qabristonlar (mogilniki) (ilovada “M”) – 23 ta (10,60%). Bularga qo‘shimcha va shartli ajratilgan guruh, ya’ni ularda madaniy qatlamlari bor, ularni biror tipga qo‘shish esa munozarali (11 ta).

1. Shaharlar guruhiga shahar maqomiga ega yoki shunga tenglashtirilgan yodgorliklar birlashtirilgan, ularning soni yuqorida ta’kidlaganimizdek 22 ta bo‘lib, ular ko‘proq vodiyning sharqiy qismida uchraydi (№1, 3, 10, 21, 58, 62, 117, 146, 155, 162, 165, 166, 167, 181, 192, 197, 198, 200, 206, 208, 210). Ularning ichki tarkibi odatda kuxandiz, shahriston va shakllanib borayotgan rabodlardan iborat. Ular ilk o‘rta asrlarda shaharga xos qator belgilarni o‘zida mujassam etgan. Yodgorliklarni statistik tahlilini ko‘rsatishicha, shaharlar o‘z maydoniga ko‘ra ikki xilga bo‘linadi: 1) Maydoni 5 gektargacha bo‘lgan kichik shaharlar. Tarixiy topografiyasiga ko‘ra, ular ikki tarkibiy qismlarga bo‘linadilar va ular ayrim olingan voha markazi vazifasini bajargan. 2) Maydoni 5–15 gektargacha bo‘lgan katta shaharlar. Ular atrofi mahobatli mudofaa inshootlari bilan o‘ralgan va uch tarkibiy qismga ajraladi. Ular hunarmandchilik, savdo-sotiq, diniy va siyosiy-madaniy markaz vazifasini bajargan. Bunday yirik shaharlar qatoriga Quva – maydoni 12 ga (saqlangani), Dunbuloq – 13,6 ga, Oqbura – 5,7 ga, Jonodil – 16,5 ga, To‘rtko‘ltepa – 12 ga, Balandtepa

va Axsiket kabi shaharlarni kiritish mumkin. Bu shaharlarda, albatta kuxandiz, shahriston uning tarkibida monumental binolar mavjud bo‘lgan. Shaharlarning umumiy maydoni hunarmandchilik dahalariga bo‘lingan va mahobatli diniy markaz-ibodatxonalar joylashgan. Shahar ichki bozori va aslzodalar xonadoniga oid binolar qad ko‘taradi. Bu shaharlar antik davr shaharlari asosida qad ko‘tarib, ular xududiy doirasidan sekin-asta karvonsaroylar shaharning rabod qismiga ko‘cha boshlaydi. Kichik shaharlarning ko‘pchiligi ilk o‘rta asrlar davri mahsulidir. Chunki so‘nggi antik davrdan boshlangan sinfiy va mulkiy tabaqalanish jarayoni, kashovarzlar tarkibidan dehqonzodalarni ajralib chiqishi va buning oqibatida ularning qasrlarini yangi joylarda qad ko‘tarishiga olib kelgan. Bu jarayon ba’zi bir antik shaharlarni inqirozga yuz tutishiga sabab bo‘lgan. Qoradaryo (10 ga), Jilandi (7 ga), Shimoliy Qurshob (5 ga), Yangibozor (10 ga), Uchqo‘rg‘on I (12 ga), Qaynovot (15 ga), Kalamishtepa (12 ga), Oqtepa (12 ga) kabilarda bu inqiroz izlari arxeologik jihatdan qayd etilgan. Biroq antik davrining hamma shaharlarining taqdiri shunday tugamagan. Asosi antik davrda qurilib, ilk o‘rta asrlarda rivoj topgan shaharlar ham vodiyda kam emas. S. P. Tolstov qadimgi Xorazmning arxeologik materiallariga asoslanib “ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda shaharlar kamayib ketdi, bu quldorlik tuzimining inqirozidan dalolat beradi” deb e’tirof etadi (Tolstov 1962: 248–249; Xmelniskiy 2000: 12–13). Bu holatni ayrim arxeologik materiallar ham tasdiqlaganday ko‘rinadi. Ya’ni, I ming yillik o‘rtalaridan ba’zi katta aholi punktlarida mudofaa devorlaridan foydalanilmagan (Gorbunova 1977:118). Aslida unday emas. Ba’zi bir antik davr shaharlarining inqirozi ilk o‘rta asrlar davrida yuz bergan etnik masalalar bilan bog‘liq edi. Xaqiqatda vodiyda antik davr yirik shaharlarining soni 16 ta bo‘lsa (Gorbunova 1977:114), ularning soni ilk o‘rta asrlarga kelib 22 taga yetgan. Biroq bu davr shaharlari nafaqat vodiyda, balki butun O‘rta Osiyoda maydon jihatidan maydalashadi. Qiyosiy tadqiqotlarga ko‘ra, V–VIII asrlarda shahar bilan qishloq o‘rtasidagi farqlar yanada kamaygan (Zadneprovskiy 1973: 88–90). Bu jarayon ilk o‘rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy va siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq holda kechgan. Xitoy manbalari VII asrda vodiyda “6 ta katta va 100 ga yaqin shaharlar bo‘lgan” deb xabar beradi. Istaxriy va al-Muqaddasiy vodiyda 40 ta shahar (ba’zida jome’ masjidi mavjud yirik qishloqlar) bo‘lganini qayd etadilar (Bolshakov 1973: 201–203; Masson 1998: 18). Bu qiyosiy solishtirmalardan kelib chiqadigan xulosa shuki, Farg‘onada shaharlar soni biz o‘rganayotgan davrda nisbatan kam bo‘lsada, ammo Istaxriylar zamonasiga (IX–X asrlar) kelib ko‘paygan. Bu tabiiy holdir. Yirik shaharlarni ilk o‘rta asrlar davrida kamayib, mayda shaharlarni ko‘payishi kuzatiladi. Shu holatga yaqin manzara qo‘shni Choch va Iloqda ham kuzatilgan. Unga asosan, VI–VIII asrlarda mayda shaharlar ko‘paygan (Buryakov 1982: 140). Qolaversa, O‘rta Osiyoning boshqa joylarida ham antik davrda o‘zlashtirilgan maydonlarni ilk o‘rta asrlarda kamayishi kuzatiladi (Nerazik 1976: 58).

2. Qishloq makonlari. Farg‘ona vodiysining ilk o‘rta asrlar qishloq makonlari So‘g‘d va Xorazmdagi kabi keng ko‘lamda o‘rganilmagan. So‘g‘d qishloqlari atrofida mudofaa devorlari, o‘ziga xos arki va ancha zich joylashgan uy-joylari borligi aniqlangan (Raspopova 1993: 41–44). Ayni paytda xuddi shunday qishloqlarning kuxandizi yo‘qlari ham bo‘lgan. O‘rta Osiyo qishloqlarining me’moriy jihatdan klassifikatsiyasi V. A. Nilsen tomonidan ishlab chiqilgan. Ularni muallif uchta guruhga bo‘ladi: 1) Katta yer egasi-feodalning qal’a-qo‘rg‘oni va uni atrofida oddiy dehqonlar (kadivorlar) uy-joylari; 2) Katta yer egasi qal’a-qo‘rg‘onining alohida joylashuvi; 3) Oddiy dehqonlarning alohida joylashgan uy-joylari (Nilsen 1966: 185–190). Ta’kidlash joizki, alohida olingan bir xududda qishloqlar xil (tip)lari ishlab chiqilmagan. Shunga qaramay, Farg‘ona vodiysi qishloqlari tiplarini o‘rganib, ularda quyidagi belgilar borligi aniqlandi.

Farg‘onaning ilk o‘rta asrlar davri qishloqlari maydoni 4 gektargacha boradi. Ularning atrofi mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan, shuningdek mudofaa devorisiz qishloqlar ham uchraydi. Ularning ba’zi birlari katta maydonni egallab, aholisi zich joylashgan va ba’zi bir tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Bu guruhga ro‘yxatdagi 92 ta qishloq yodgorliklaridan 26 tasi ilk o‘rta asrlarda (ro‘yxatda qoraytirib ko‘rsatilganlari) bunyod etilgan (№2, 4, 7, 8, 9, 11, 12, 13, 15, 16, 17, 18, 19, 20 , 22, 24, 26, 28, 30, 31, 32, 33, 35, 38, 43, 45, 46, 50, 51, 52, 56, 60, 61, 63, 65, 66, 67, 70, 72, 83, 99, 106, 110, 112, 116, 118, 119, 120, 123, 125, 126, 127, 129, 130, 131, 132, 133, 134, 135, 136, 140, 142, 143, 144, 145, 147, 150, 152, 153, 154, 157, 158, 159, 160, 161, 168, 169, 170, 171, 173, 174, 175, 176, 177, 178, 179, 180, 184, 189, 190, 191, 209).

Qolgan 66 tasi antik davrda qurilgan bo‘lib, keyingi davrlarda ham ularda hayot davom etgan. Bulardan Qo‘shtepa (№4 – maydoni 3 gektar), Mardaktepa (№26 – maydoni 100 x 150 m), Sartepa (№28 – maydoni 1,9 ga), Izboskan (№60 – maydoni 2,5 ga), Gorbobo (№157 – maydoni 2 ga)lar katta qishloqlar safiga kiradi. Bular, yuqorida aytganimizdek, shaharlar shakllanmagan ayrim vohalarning markazi vazifasini bajarganlar.

3. Qal’alar (Qoravul qal’alar) 13 ta (№25, 53, 54, 75, 77, 93, 108, 156, 192A, 199, 213) bo‘lib, ulardan faqat uchtasi (№25, 53, 75) ilk o‘rta asrlarda qad ko‘targan. Qal’alar strategik jihatdan muhim manzillarda joylashib, mudofaaga alohida e’tibor beriladi, binolar qurilishida ularning vazifasi (askarlar va qoravullar yashashi, kuzatuv joylari va h.) hisobga olingan.

Vodiyda qoravul-qal’alarning ikki xili uchraydi: birinchisi vohalar yoki katta shaharlar kiraverishida o‘ziga xos himoya chizig‘i vazifasini bajaruvchi (№25, 93) qal’alar, ikkinchisi suv manbalari yoki suv ayirg‘ich boshlarida suv nazorati uchun qurilgan maxsus qal’a-istehkomlar (№156, 192A, 213). Qal’alarning uchinchi xili ya’ni, qir-qoyalardagi nazorat-qal’alari bo‘lib, ular xaqida N. G. Gorbunova muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tadi (Gorbunova 1973: 133–134). Bu o‘rinda ikkinchi guruh qal’alarning ahamiyati katta bo‘lgan. B. A. Latinin fikriga ko‘ra, bu qal’a egalari yaqin atrofdagi yerlarni ham nazorat qilgan (Latynin 1961: 152). Bu tadqiqotchi bunday qal’alarga Qoradaryodagi Shoshtepa (№213), Isfarasoydagi Qal’ai Bolo (№192A), So‘xsoydagi Sariqo‘rg‘on (№156)larni kiritadi. Sariqo‘rg‘on va Qal’ai Bolo antik davrda qurilgan va keyingi davrlarda ham ulardan keng foydalanilgan (Latynin 1961: 155). Shoshtepa – Qoradaryoning Kampirravot darasidan chiqaverishidagi Savay, Andijonsoy, Shahrixonsoylarning suv boshiga joylashgan muhim arxeologik yodgorlik hisoblanadi. U mil. avv. III–II va milodiy III–IV asrlari bilan davrlanadi. Uning asosiy vazifasi magistral kanallar suv oladigan suv ayirg‘ichni qo‘riqlash edi (Latynin 1961: 149–152). Xuddi shunday qo‘riqlash vazifasini Qo‘rg‘oshintepa (№190), Oqtepa (Batken) (№182) lar ham bajargan.

4. Qal’a – qo‘rg‘onlar. Ularning soni 27 ta. Bu qal’alar asosan ilk o‘rta asrlarda dehqonzodalarning qasri sifatida qad ko‘targan va tevarak-atrof qishloqlari uchun markaz vazifasini o‘tagan. Qal’a-qo‘rg‘onlar ikki xil bo‘lib, ularning birinchisi mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan qasrlar (feodal qasrlar) bo‘lsa (№69, 81), ikkinchisi mudofaa devorlarisiz (№55, 69, 71, 73) qal’a qo‘rg‘onlardir. Birinchi xil qal’a egalari o‘z ekin maydonlari atrofini mudofaa devorlari bilan o‘rab olganlar va qal’ada yersiz dehqonlarni – kadivarlarni ishlatganlar. Albatta, har ikki holatda ham binolar bir-ikki qavatli bo‘lgan. Ayrim holatda donjonlar atrofiga qurilgan bir ikki qavatli binoli qal’a-qo‘rg‘onlar ham uchraydi (Xmelniskiy 2000: 65–66). Qal’a – qo‘rg‘onlar 14 tasi o‘rganilayotgan ushbu davrda paydo bo‘ladi, ularning aksariyati ilk o‘rta asrlarning so‘nggi (VII–VIII) bosqichida bunyod etilgan.

5. Yakka holda qad ko‘targan turar-joylar va ular guruhi (mavzelar yoki ovullar). Ularning 29 tasi ro‘yxatga olingan bo‘lib, bularga maydoni, diametri 15–20 metr bo‘lgan tepaliklar kiritilgan. Bu turar-joylar oddiy kashovarzlarga tegishli bo‘lishi kerak. Ular doimiy istiqomat qiladigan turar-joy va yordamchi xo‘jalik binolardan iborat bo‘lgan. Ularning ba’zilari devor bilan o‘rab olingan. Shunday turar-joy massivlari o‘z ekinzor uchastkalari bilan qadimgi Xorazmda ham o‘rganilgan. Farg‘ona vodiysida o‘rganilgan bu guruhning yarmidan ko‘prog‘i (17 ta) ilk o‘rta asrlarda, qolganlari antik davrida qad ko‘targan. Alohida uy yoki uy-joy mavzelari (massivlari?) asosiy dehqonchilik rayonlarida – aholi eng zich joylashgan xududlarda uchraydi. Masalan, ular Aravonsoy, Shahrixonsoy va Norin-Qoradaryo irrigatsiya rayonlarida qayd qilingan.

6. Qabristonlar (mozorlar) kam uchraydi va bir xil xususiyatlarga ham ega emas (№5, 6, 96, 105, 111, 121, 122, 138, 139, 163, 172, 193, 194, 195, 202, 203, 204, 205, 207, 212). Ular asosan tog‘, tog‘ oldi va ayrim hollarda adirlik qismlarda qayd etildi va ular ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi aholiga tegishlidir. Ammo, dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholiga tegishli mozorlar juda kam saqlangan. Biroq, vodiydagi bu davr qabristonlarida ko‘mish marosimlarida aralashgan urf-odatlar ham uchraydi. Ya’ni, ko‘chmanchi aholi va ular yaqinidagi dehqon aholi ham birgalikda qabristonlardan foydalanaverganlar. Shuning uchun bir mozorda har xil dafn etish usullari (yorma, lahad, o‘ra go‘rlar) uchraydi (Zadneprovskiy 1960: 124–126; Litvinskiy 1972: 73; Gorbunova 1981: 88–94; Matboboyev 1993: 44). Hozircha barcha belgilariga ko‘ra Munchoqtepa I, II shahar qabristoni sifatida e’tirof etilishi mumkin (№207). Chunki, u shaharning yonginasida joylashgan bo‘lsa, yana ikkinchi jihati qabriston shahar bilan bir davrda faoliyat ko‘rsatgan. Bu guruh mozorlar juda oz miqdori saqlangan. Shuning uchun ilk o‘rta asrlar urf-odatlarini (ayniqsa shahar aholisini) o‘rganishda har bir aniqlangan mozor katta ahamiyatga egadir.

Farg‘ona vodiysining ilk o‘rta asrlar davri yodgorliklari suv manbalariga ko‘ra oltita katta guruhga bo‘lindi. Bunday tasniflashga asoslangan fikr-mulohazalarimiz shaxsiy tadqiqotlarimiz hamda O‘rta Osiyodagi ushbu davr yodgorliklarini o‘rganish natijasida qilingan xulosalarga asoslandi. Albatta, biz ibodat bilan bog‘liq binolarni, uy-joylarni, shuningdek ishlab chiqarishga doir binolarni (chunonchi vino

ishlab chiqaruvchi, kulolchilik) alohida ajratmadik. Chunki, ular uchun materiallar hozircha kam. Biroq, vohalardagi arxeologik yodgorliklarni guruhlar bo‘yicha joylashuvi shubhasiz muhim ma’lumotlar berishi mumkin. Chunki antik davr yodgorliklarini ayrim olingan xududda o‘rganish muhim xulosalarga olib kelgan, ya’ni janubiy-sharqiy Farg‘onani Karkidon va Nayman qishloqlari orasidagi 15 km2 maydonda 10 ta yodgorlik aniqlangan. Bu guruhda: 3–4 ta alohida uy, ikkita atrofi devor bilan o‘ralgan makon (biri markaz vazifasini o‘tagan, ikkinchisi vino ishlab chiqarishga ixtisoslashgan), bitta voha istehkomi, bitta diniy ibodatga mo‘ljallangan bino va bir qabriston qayd etilgan (Gorbunova 1977: 114–115).

Nihoyat, ushbu vohalarning shahar va qishloqlarida yashagan aholi nisbati ham muhim hisoblanadi. Agarda G. Chayldni katta shaharda 5000 kishi, mayda shaharda 1000 kishi yashagani xaqidagi hisob-kitobini nazarda tutib, Xitoy manbalaridagi Farg‘onada ilk o‘rta asrlarda 6 ta katta shahar va 100 ga yaqin kichik shahar borligi xaqidagi xabarga asoslansak, yirik shaharlarda 30000, mayda shaharlarda esa 100000 kishi yashagan bo‘lib chiqadi (Zadneprovskiy 1973: 89–90). Agar o‘z materiallarimizni shu hisob bilan taqqoslasak, quyidagi ma’lumotlarni olish mumkin: 22 ta shaharda o‘rtacha 3000 dan aholi yashagan bo‘lsa, vodiy shaharlarida 65–70 ming aholi yashagani ma’lum bo‘ladi. Endi bu raqamga Samarqand va Buxorodagi shahar va qishloqlar aholi nisbati: ya’ni 1:6 (Raspopova 1993: 38) va Farg‘onaning antik davrdagi nisbati 1:4 qo‘llanilsa (Zadneprovskiy 1984: 180) vodiy aholisi 250–300 mingta ekani oydinlashadi. Bu Farg‘ona vodiysi aholisining tarixiy manbalardagi raqamlarga (ya’ni, bu yerda Syanxanshu manbasida ko‘rsatilgan Farg‘ona aholisi soni – 300 ming ekanligi ko‘zda tutilmoqda. Bu tarixiy mlumotlarga (Bichurin 1950: 186) zid kelmaydi.

Xulosalar. Farg‘ona vodiysining ilk o‘rta asrlar arxeologiya yodgorliklari birinchi bor to‘la ro‘yxatga olinib, ular xaritaga tushirildi. Yodgorliklarni suv manbalari asosida irrigatsion rayonlashtirish va tasniflash quyidagi yakuniy fikrlarni aytishga imkon beradi:

1. 259 ta nuqtada V–VIII asrlar bilan bog‘liq materiallar hisobga olindi. Ushbu davr arxeologiya yodgorliklarini suv manbalari bo‘yicha guruh-guruh bo‘lib vohalarda joylashishi aniqlandi. Tadqiqotda ularning joylashuvi bo‘yicha quyidagi iyerarxik tizim taklif etildi, ya’ni, suv manbasi bo‘yicha yodgorliklar guruhi vohalarni, bir necha voha esa irrigatsiya rayonini tashkil etgan (suv manbai >> voha, kichik voha >> irrigatsiya rayoni). Tashqi belgilari va o‘lchamlari asosida har bir irrigatsiya rayoni uchun markaziy yodgorlik aniqlandi. Yodgorliklar 14 ta irrigatsiya rayonidagi voha va kichik vohalarga joylashgan.

2. Ilk o‘rta asrlar arxeologik yodgorliklarini tipologiyasi birinchi marta ishlab chiqildi va ular belgilangan xusussiyatlariga ko‘ra 6 guruhga ajratildi: shahar va unga tenglashtirilganlar (22 ta), qishloqlar (92) , qal’alar (13), qal’a-qo‘rg‘onlar (27), yakka holda qad ko‘targan turar-joy masssivlari (29), qabristonlar (23). Har bir guruhga funksional jihatdan ta’rif berildi.

3. V–VIII asrlarda vodiy aholisining soni 250-300 ming bo‘lsa, shundan 65–70 minggi shaharlarda yashagan (23–26%). Shaharlar soni bir oz ortadi, ya’ni arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, antik davrda 16 ta shahar aniqlangan bo‘lsa, ilk o‘rta asrlarda ularning soni 22 taga yetadi. Shaharlar ayrim olingan voha yoki irrigatsiya rayonining hunarmandchilik, savdo-sotiq va diniy markaz vazifasini bajarganlar.

4. Yodgorliklarning 80% vodiyning sharqiy va janubiy-sharqiy qismida joylashgan va aholi asosan dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Bu holat oldingi antik davrda ham kuzatilgan va yodgorliklarni vodiyning ushbu qismida to‘plangani tadqiqotchilarga Davan podsholigi aynan shu yerda joylashgan degan xulosaga olib kelgan edi (Gorbunova 1977: 118).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Абдулгазиева Б. Восточная Фергана в древности и раннем средневековье (система расселения, районирование и типология). Текст и альбом диссертации на соиск. уч. степени канд. ист. наук. Самарканд, 1988.

Абдулгазиева Б. Восточная Фергана в древности и раннем средневековье (система расселения, районирование и типология).: Автореф. дисс... канд. ист. наук. Самарканд, 1988. 20 с.

Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент: Фан, 1977. 232 с.

Аскаров А. А., Ширинов Т. Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. Самарканд, 1993. 251 с.

Анарбаев А. А. Городская культура Ферганы и ее связи Согдом // Городская среда и культура Бактрии-Тохаристана и Согда (IV в. до н. э. – VIII в. н. э.). ТД международного коллоквиума. Ташкент, 1986. С. 6–7.

Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. II. М.–Л.: изд-во АН СССР, 1950. 335 с.

Брыкина Г. А. Карабулак. М.: Наука, 1974. 127 с.

Буряков Ю. Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент: Фан, 1982. 212 с.

Большаков О. Г. Город в конце VIII – нач. XIII в. // Средневековой город Средней Азии. Л.: Наука, 1973. С. 132–352.

Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. №26. М.–Л., 1952. 346 с.

Брыкина Г. А, Горбунова Н.Г. Фергана // Археология. Средняя Азия в раннем средневековья. М., 1999. С. 93–113.

Васильев Д. Д. Графический фонд памятников тюркский рунической письменности Азиатского ареала: Опыт систематизации. М.: Наука, 1983. 160 с.

Горбунова Н. Г. Поселения Ферганы первых веков нашей эры (Некоторые итоги исследования) // СА. № 3. М., 1977. С. 107–120.

Горбунова Н. Г. Кугайско-карабулакская культура Ферганы // СА. № 3. М., 1983. С. 23–46.

Горбунова Н. Г. Некоторые итоги исследования поселений Ферганы кушанского времени // ТД сессии, посвящ. итогам полевых археологических исследований 1972 года. Ташкент: Фан, 1973. С.133–134.

Горбунова Н. Г. Культура Ферганы в эпоху раннего железа // АСГЭ. Вып. 5. Л.: Искусство, 1962. С. 91–122.

Горбунова Н. Г. О типах ферганских погребальных памятников первой половины I тысячелетия н. э. // АСГЭ. Вып. 22. Л.: Искусство, 1981. С. 84–99.

Заднепровский Ю. А. Археологические памятники южных районв Ошской области. Фрунзе. 1960. 176 с.

Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. № 118. М.–Л, 1962. 328 с.

Заднепровский Ю. А. Типология и динамика развития городских поселений древней Ферганы // ТД сессии, посвяш. итогам полевых археологических исследований 1972 года. Ташкент: Фан, 1973. С. 88–90.

Заднепровский Ю. А. К истории оазисного расселен ия в первобытной Средней Азии // КСИА. Вып. 167. М., 1981. С. 23–28.

Заднепровский Ю. А. Древняя Фергана // История Киргизской ССР. Том I. Фрунзе.: Кыргызстан, 1984. С. 177–201.

Заднепровский Ю. А. Фергана (в античную эпоху) // Археология СССР: Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. Гл. 16. М.: Наука, 1985. С. 304–316.

Заднепровский Ю. А. Динамика развития оседлоземледельческой культуры Ферганы // Аральский кризис: ист.-геогр. ретроспектива. М., 1991. С. 186–198.

Латынин Б. А. Некоторые итоги работ Ферганской экспедиции 1934 г. // АСГЭ. Вып. 3. Ленинград: Искусство, 1961. С. 109–170.

Латынин Б. А. Вопросы хронологии земледельческих культур древней Ферганы // Исследования по археологии СССР. Л., 1961А. С. 111–119

Литвинский Б. А. Курганы и курумы Западной Ферганы. М.: Наука, 1972. 258 с.

Литвинский Б. А. Керамика из могильников Западной Ферганы. М.: Наука, 1973. 202 с.

Литвинский Б. А. Украшения из могильников Западной Ферганы. М.: Наука, 1973. 212 с.

Литвинский Б. А. Орудия труда и утварь из могильников Западной Ферганы. М.: Наука, 1978. 216 с.

Массон В. М. Кушанская эпоха в древней истории Узбекистана // ОНУ. № 6. Ташкент, 1981. С. 36–43.

Матбобоев Б. Х. Шимолий Фарғонанинг қадимги мозорларини ўрганишга доир (Ковасой ва Косонсой ҳавзалари) // ЎИФ. № 3. Ташкент. 1993. 19–23 Б.

Матбабаев Б. Х. Қадимги Фарғонадаги дафн маросимлари // ЎИФ. № 5. Тошкент, 1994. 47–52 Б.

Массон В.М. Ош и городские центры Ферганской долины // Древний Ош в среднеазиатском контексте. ТД МК. Ош, 1998. С. 15–19.

Мирбабаев А. К. Дахмаки Курката и проблемы зороастрийской идеологии в Северной Средней Азии. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. Душанбе, 1994.

Неразик Е. Е. Сельское жилище в Хорезме (I–XV вв.). Из истории жилища и семьи. Археолого-этнографические очерки. М.: Наука, 1976. 256 с.

Нильсен В. А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V–VIII вв.).Ташкент: Фан, 1966. 335 с.

Оболдуева Т. Г. Отчет о работе первого отряда археологической экспедиции на строительстве Большого Ферганского канала // ТИИА АН УзССР. Т. IV. Ташкент, 1951. С. 7–40.

Пугаченкова Г. А., Ртвеладзе Э. В. Северная Бактрия-Тохаристан. Очерки истории и культуры. Ташкент: Фан, 1990. 110 с.

Распопова В. И. Раннесредневековый согдийский город (по материалам Пенджикента) // Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук в форме научного доклада. Санкт-Петербург, 1993. 69 с.

Ртвеладзе Э. В. К характеристике памятников Сурхандариньской области ахеменидского времени // СА. № 2. М., 1975. С. 262–266.

Сагдуллаев А. С. Культура Северной Бактрии в эпоху поздней бронзы и ранннего железа (по материалам памятников района Шурчи-Байсуна).: Автореф. дисс... канд. ист. наук. Ленинград, 1978. 17 с.

Средняя Азия. Природные условия и естественные ресурсы. М., 1968. 485 с.

Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М.: изд-во восточной литературы, 1962. 324 с.

Шайдуллаев Ш. Б. Северная Бактрия в эпоху раннежелезного века. Ташкент – 2000. Ташкент: Фан, 1986. 136 с.

Шульц В. Л. Реки Средней Азии. Ленинград, 1965. 692 с.

Шульц В. Л, Машрапов Р. М. Ўрта Осиё гидрографияси. Тошкент, 1969. 215 с.

Хмельницкий С. Г. Между Кушанами и Арабами. Архитектура Средней Азии V–VIII вв. Берлин-Рига: Gamajun, 2000. 293 с.

REFERENCES:

Abdulgazieva B. 1988. *Vostochnaya Fergana v drevnosti i rannem srednevekov’e (sistema rasseleniya, rajonirovanie i tipologiya) (Eastern Ferghana in antiquity and the early Middle Ages (settlement system, zoning and typology).* Thesis i al’bom dissertatsii na soisk. uch. stepeni kand. ist. nauk. Samarkand. (In Russian).

Abdulgazieva B. 1988. *Vostochnaya Fergana v drevnosti i rannem srednevekov’e (sistema rasseleniya, rajonirovanie i tipologiya) Eastern Ferghana in antiquity and the early Middle Ages (settlement system, zoning and typology):* Avtoref. diss... kand. ist. nauk. Samarkand, 20. (In Russian).

Askarov A. 1977. *Drevnezemledel’cheskaya kul’tura ehpokhi bronzy yuga Uzbekistana (Ancient agricultural culture of the Bronze Age in the south of Uzbekistan).* Tashkent: Fan Publ., 232. (In Russian).

Askarov A. A., Shirinov T. Sh. 1993. *Rannyaya gorodskaya kul’tura ehpokhi bronzy yuga Srednej Azii. (Early urban culture of the Bronze Age in the south of Central Asia).* Samarkand, 251. (In Russian).

Anarbaev A. A. 1986. *Gorodskaya kul’tura Fergany i ee svyazi Sogdom (Urban culture of Fergana and its connections with Sogdom).* In *Gorodskaya sreda i kul’tura Baktrii-Tokharistana i Sogda (IV v. do no eh - VIII v.n.eh.)*. TD mezhdunarodnogo kollokviuma. Tashkent, 6–7. (In Russian).

Bichurin N. Ya. 1950. *Sobranie svedenij o narodakh, obitavshikh v Srednej Azii v drevnie vremena.* T. II. Moscow–Leningrad: Izd-vo AN SSSR Publ., 335. (In Russian).

Brykina G. A. 1974. *Karabulak.* Moscow: Nauka Publ., 127. (In Russian).

Buryakov Yu. F. 1982. *Genezis i ehtapy razvitiya gorodskoj kul'tury Tashkentskogo oazisa (Genesis and stages of development of the urban culture of the Tashkent oasis).* Tashkent: Fan Publ., 212. (In Russian).

Bol'shakov O. G. 1973. *Gorod v kontse VIII – nach. XIII v. (City at the end of 8th – nah. 13th c.).* In *Srednevekovoj gorod Srednej Azii (Medieval city of Central Asia)*. Leningrad: Nauka, 132–352. (In Russian).

Bernshtam A. N. 1952. *Istoriko-arkheologicheskie ocherki Tsentral'nogo Tyan'-Shanya i Pamiro-Alaya.* In MIA – Materialy i issledovaniya po arkheologii SSSR (Materials and research on archeology of the USSR). №26. Moscow–Leningrad, 346. (In Russian).

Brykina G. A, Gorbunova N. G. 1999. Fergana. Arkheologiya. Srednyaya Aziya v rannem srednevekov'ya. (Archeology. Central Asia in the Early Middle Ages). Moscow, 93–113. (In Russian).

Vasil'ev D. D. 1983. *Graficheskij fond pamyatnikov tyurkskij runicheskoj pis'mennosti Aziatskogo areala: Opyt sistematizatsii (Graphic fund of monuments of the Turkic runic writing of the Asian area: The experience of systematization.)*. Moscow: Nauka Publ., 160. (In Russian).

Gorbunova N. G. 1977. *Poseleniya Fergany pervykh vekov nashej ehry (Nekotorye itogi issledovaniya) Settlements of Fergana in the first centuries of our era (Some results of the study).* In *SA – Sovetskaya arkheologiya (Soviet archeology)*. № 3. Moscow, 107–120. (In Russian).

Gorbunova N. G. *Kugajsko-karabulakskaya kul'tura Fergany (Kugai-Karabulak culture of Fergana).* In *SA – Sovetskaya arkheologiya (Soviet archeology).* № 3. M., 1983. S. 23–46. (In Russian).

Gorbunova N. G. 1973. *Nekotorye itogi issledovaniya poselenij Fergany kushanskogo vremeni (Some results of the study of the settlements of Fergana in the Kushan period).* TD sessii, posvyashh. itogam polevykh arkheologicheskikh issledovanij 1972 goda. Tashkent: Fan, 133–134.(In Russian).

Gorbunova N. G. 1962. *Kul'tura Fergany v ehpokhu rannego zheleza (Culture of Fergana in the Early Iron Age).* In *ASGEh – Arkheologicheskij sbornik Gosudarstvennogo Ehrmitazha (Archaeological compilation of the State Hermitage).* Issue 5. Leningrad: Iskusstvo Publ., 91–122. (In Russian).

Gorbunova N.G. *O tipakh ferganskikh pogrebal'nykh pamyatnikov pervoj poloviny I tysyacheletiya n.eh (On the types of Fergana burial sites of the first half and millennium AD).* In *ASGEh – Arkheologicheskij sbornik Gosudarstvennogo Ehrmitazha (Archaeological compilation of the State Hermitage).* Issue 22. L.: Iskusstvo, 1981. S. 84–99. (In Russian).

Zadneprovskij Yu. A. 1960. *Arkheologicheskie pamyatniki yuzhnykh rajonv Oshskoj oblasti (Archaeological monuments of the southern districts in the Osh region).* Frunze, 176. (In Russian).

Zadneprovskij Yu. A. *Drevnezemledel'cheskaya kul'tura Fergany (Ancient agricultural culture of Ferghana).* In *MIA – Materialy i issledovaniya po arkheologii SSSR (Materials and research on archeology of the USSR).* № 118. Moscow-Leningrad, 1962. 328. (In Russian).

Zadneprovskij Yu. A. 1973. *Tipologiya i dinamika razvitiya gorodskikh poselenij drevnej Fergany (Typology and dynamics of development of urban settlements of ancient Fergana).* TD sessii, posvyash. itogam polevykh arkheologicheskikh issledovanij 1972 goda. Tashkent: Fan Publ., 88–90. (In Russian).

Zadneprovskij Yu. A. 1981. *K istorii oazisnogo rasselen iya v pervobytnoj Srednej Azii (On the history of oasis settlement in primitive Central Asia).* In *KSIA – Kratkie soobshheniya Instituta arkheologii (Brief Communications of the Institute of Archeology)*. Issue 167. Moscow, 23-28. (In Russian)

Zadneprovskij Yu. A. 1984. Drevnyaya Fergana (Ancient Fergana). In Istoriya Kirgizskoj SSR. Tom I. Frunze: Kyrgyzstan, 177–201. (In Russian)

Zadneprovskij Yu. A. 1985. *Fergana (v antichnuyu ehpokhu) Ferghana (in ancient times).* In *Arkheologiya SSSR: Drevnejshie gosudarstva Kavkaza i Srednej Azii (Archeology of the USSR: The most ancient states of the Caucasus and Central Asia).* Gl. 16. Moscow: Nauka, 304–316. (In Russian)

Zadneprovskij Yu. A. 1991. *Dinamika razvitiya osedlozemledel'cheskoj kul'tury Fergany (Dynamics of development of the settled agricultural culture of Fergana).* In Aral'skij krizis: istoriko-geograficheckaya retrospektiva. Moscwa, 186–198. (In Russian)

Latynin B. A. 1961. *Nekotorye itogi rabot Ferganskoj ehkspeditsii 1934 g. (Some results of the work of the Fergana expedition in 1934).* In *ASGEh – Arkheologicheskij sbornik Gosudarstvennogo Ehrmitazha (Archaeological compilation of the State Hermitage).* Issue 3. Leningrad: Iskusstvo Publ., 109–170.

Latynin B. A. 1961 a. *Voprosy khronologii zemledel’cheskikh kul’tur drevnej Fergany (Questions of the chronology of agricultural cultures of ancient Fergana).* In *Issledovaniya po arkheologii SSSR.* Leningrad, 111–119. (In Russian).

Litvinskij B. A. 1972. *Kurgany i kurumy Zapadnoj Fergany (Burial mounds and kurums of Western Fergana).* Moscow: Nauka Publ., 258. (In Russian).

Litvinskij B. A. 1973. *Keramika iz mogil’nikov Zapadnoj Fergany (Ceramics from the graves of Western Fergana).* Moscow: Nauka Publ., 202. (In Russian).

Litvinskij B. A. 1973. *Ukrasheniya iz mogil’nikov Zapadnoj Fergany (Jewelry from the graves of Western Fergana).* Moscow: Nauka Publ., 212. (In Russian).

Litvinskij B. A. 1978. *Orudiya truda i utvar’ iz mogil’nikov Zapadnoj Fergany (Tools and utensils from the graves of Western Fergana).* Moscow: Nauka Publ., 216. (In Russian).

Masson V. M. 1981. *Kushanskaya ehpokha v drevnej istorii Uzbekistana.* In *ONU – Obshhestvennye nauki v Uzbekistane (Social sciences in Uzbekistan).* № 6. Tashkent, 36–43. (In Russian).

Matboboev B. Kh. 1993. *Shimolij Farg’onaning qadimgi mozorlarini o’rganishga doir (Fovasoj va Kosonsoj havzalari) (Regarding the study of the ancient graves of Northern Fergana (Fovasoj and Kosonsoj basins).* In *ONU – Obshhestvennye nauki v Uzbekistane (Social sciences in Uzbekistan).* № 3. Tashkent, 19–23. (In Uzbek).

Matbabaev B. Kh. 1994. *Qadimgi Farg’onadagi dafn marosimlari (Funeral rites in ancient Ferghana).* In *ONU – Obshhestvennye nauki v Uzbekistane (Social sciences in Uzbekistan).* № 5. Toshkent, 47–52. (In Uzbek).

Masson V. M. 1998. *Osh i gorodskie tsentry Ferganskoj doliny (Osh and urban centers of the Ferghana Valley).* In *Drevnyj Osh v sredneaziatskom kontekste (Ancient Osh in the Central Asian Context).* TD MK. Osh, 15–19. (In Russian).

Mirbabaev A. K. 1994. *Dakhmaki Kurkata i problemy zoroastrijskoj ideologii v Severnoj Srednej Azii (Dakhtaki Kurkat and problems of Zoroastrian ideology in Northern Central Asia).* Dissertatsiya na soiskanie uchenoj stepeni doktora istoricheskikh nauk. Dushanbe. (In Russian).

Nerazik E. E. 1976. *Sel’skoe zhilishhe v Khorezme (I–XV vv.). Iz istorii zhilishha i sem’i. (Rural dwelling in Khorezm (Ith-15th centuries). From the history of dwelling and family).* In *Arkheologo-ehtnograficheskie ocherki (Archaeological and ethnographic essays).* Moscow: Nauka Publ., 256. (In Russian).

Nil’sen V. A. 1966. *Stanovlenie feodal’noj arkhitektury Srednej Azii (V–VIII vv.) (Formation of the feudal architecture of Central Asia (5th-8th centuries).* Tashkent: Fan, 335. (In Russian).

Oboldueva T. G. 1951. *Otchet o rabote pervogo otryada arkheologicheskoj ehkspeditsii na stroitel’stve Bol’shogo Ferganskogo kanala (Report on the work of the first detachment of the archaeological expedition on the construction of the Great Fergana Canal).* In *TIIA AN UzSSR (Proceedings of the Institute of History and Archeology of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR).* Vol. IV. Tashkent, 7–40. (In Russian).

Pugachenkova G. A., Rtveladze Eh.V. 1990. *Severnaya Baktriya-Tokharistan. Ocherki istorii i kul’tury. (Northern Bactria-Tokharistan. Essays on history and culture).* Tashkent: Fan Publ., 110. (In Russian).

Raspopova V. I. 1993. *Rannesrednevekovyj sogdijskij gorod (po materialam Pendzhikenta) (Early medieval Sogdian city (based on materials from Penjikent).* Dissertatsiya na soiskanie uchenoj stepeni doktora istoricheskikh nauk v forme nauchnogo doklada. Sankt-Peterburg, 69. (In Russian).

Rtveladze Eh. V. 1975. *K kharakteristike pamyatnikov Surkhandarin’skoj oblasti akhemenidskogo vremeni (To the characteristics of the monuments of the Surkhandarin region of the Achaemenid time).* In *SA – Sovetskaya arkheologiya (Soviet archeology).* № 2. Moscow, 262–266. (In Russian).

Sagdullaev A. S. 1978. *Kul’tura Severnoj Baktrii v ehpokhu pozdnej bronzy i rannnego zheleza (po materialam pamyatnikov rajona Shurchi-Bajsuna) (Culture of Northern Bactria in the Late Bronze and*

Early Iron Ages (based on the materials of the monuments of the Shurchi-Baysun region): Avtoref. diss... kand. ist. nauk. Leningrad, 17. (In Russian).

Srednyaya Aziya. 1968. *Prirodnye usloviya i estestvennye resursy (Natural conditions and natural resources).* Moscow, 485. (In Russian).

Tolstov S. P. 1962. *Po drevnim del'tam Oksa i Yaksarta (According to the ancient cases of Oxus and Jaxart).* Moscow: Vostochnoya literatura, 324. (In Russian).

Shajdullaev Sh. B. 1986. *Severnaya Baktriya v ehpokhu rannezheleznogo veka (Northern Bactria in the Early Iron Age).* In Tashkent – 2000. Tashkent: Fan, 136. (In Russian).

Shul'ts V. L. 1965. Reki Srednej Azii (Rivers of Central Asia). Leningrad, 692. (In Russian).

Shul'ts V. L, Mashrapov R. M. 1969. O'rta Osiyo gidrografiyasi (Hydrography of Central Asia). Toshkent, 215. (In Uzbek).

Khmel'nitskij S. G. 2000. *Mezhdu Kushanami i Arabami. Arkhitektura Srednej Azii V–VIII vv. (Between the Kushans and the Arabs. Architecture of Central Asia 5th-8th centuries).* Berlin-Riga: Gamajun Publ., 293. (In Russian).

OASIS-BASED DISTRIBUTION OF ARCHAEOLOGICAL SITES ALONG THE WATER SOURCES AND THEIR CLASSIFICATION (5TH–8TH CENTURIES)

© 2023. Matbabayev Bokijon
Samarkand Institute of Archaeology named after Y. Gulyamov

Keywords: Fergana Valley, early medieval period, irrigation areas, oases, land tenure, confederacy, typology, orage farming, cattle breeding.

The location of sites in relation to water sources in the Fergana Valley in the early medieval period has not been studied. In the framework of his doctoral thesis, the author for the first time carried out an inventory and systematization of sites of this period. During the mapping process, more than 250 sites of early medieval Fergana were identified. Those comprised 217 archaeological sites, 22 locations of ancient Turkic inscriptions, and about 20 ossuary and hum burials, as well as two treasures of coins. Given the presence of water sources, each group of sites was merged into micro-oases or oases, the latter, in turn, into irrigation areas. As a result, the following hierarchical zoning system was created: water source >> micro-oasis, oasis >> irrigation area. For each oasis or irrigation area, we have conditionally identified the so-called pivotal sites that probably played the role of an administrative, craft, or cultural center of an oasis or several oases (usually 2–3). As a result, we have allocated 14 irrigation districts in the Fergana Valley. The identified irrigation areas almost completely coincide with the territory that was once developed in earlier periods. They are located in groups based on the water resources of rivers and springs (sai). Thus, the settlement pattern is similar to the location of sites of the Chust and Eilatan cultures.